

Iqtisodiy o'qish

2025-yil 13-fevralida Vazirlar Mahkamasi, tegishli tizim tashkilotlari, Fanlar akademiyasi Yagona buyurtma xizmati rahbariyati va mas'ullari ishtirokida "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24 dekabrda PQ-454-son qarorida belgilangan prognoz parametrlariga erishish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida" mavzusida iqtisodiy o'qish o'tkazildi.





Tadbirni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vise-prezidenti S.Z. Mirzayev ochib berdi.

Fanlar akademiyasi Yagona buyurtma xizmati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrda "2025—2027-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-454-sonli qarorida belgilangan prognoz parametrlariga erishish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilab olish va amalga oshirishga bag'ishlangan taqdimot bo'lib o'tdi.

Tadbir yakunida Dasturning tegishli asosiy parametrlari, maqsadli ko'rsatkichlari va manzilli ro'yxatlari belgilangan muddatlarda to'liq va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek, ajratilgan mablag'larni maqsadli yo'naltirish hamda samarali sarflash yuzasidan choralar belgilab olindi.